



XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV IJODIDA SARGUZASHT-FANTASTIK TASVIR

*Mirsanova Moxira Xusniddin qizi,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti,
“Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrasida o‘qituvchi
moxiramirsanova@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xudoyberdi To‘xtaboevning sarguzasht va fantastik yo‘nalishdagi asarlari tahlil qilinadi. Uning ijodidagi qiziqarli tasvirlar, qahramonlar hamda ularning tarbiyaviy ahamiyati o‘rganiladi. Maqolada yozuvchining “Sehirli qalpoqcha”, “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehirgarlar jangi” kabi mashhur asarlarining badiiy xususiyatlari haqida, mavzu va g‘oyasi haqidagi fikr-mulohazalarimizni keltiramiz. Bundan tashqari mazkur asarlardagi ijobiy va salbiy qahramonlarga ham to‘xtalamiz. Hoshimjon, Orif, Zokir, Saddiniso, Mirobiddinxo‘ja, Soraxon folbin, “Uzunquloq pir”, “Danak” qori, “Yong‘oq” qori, “Bodom” qori obrazlari, Akbar, Sehirgar Iblis, Dar Darajalarning qahramonliklari-yu shaxsiy fazilatlar va qahramonliklari, illatlari to‘g‘risida, shuningdek mazkur asarlardagi sarguzasht voqealar tasviri, fantastika elementlarining asarlardagi voqealar zahiriga ijodkor tomonidan mohirona singdirilishi xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Hoshimjon, Akbar, fantastika elementlari, bolalar adabiyoti, qahramonlar, tarbiya, sehirgarlar, mistik voqealar.

Annotation: This article analyzes the adventure and fantasy works of Khudoyberdi To‘khtaboyev. It examines the interesting images, characters, and their educational significance in his works. The article discusses the artistic features of the writer's famous works such as "The Magic Hat", "Riding the Yellow Demon", "The Death of the Yellow Demon", and "The Land of Sweet Melons or the Battle of Wizards", along with our thoughts on their themes and ideas. Furthermore, the positive and negative characters in these works are also addressed. The article explores the heroism and personal virtues of characters like Khoshimjon, Orif, Zokir, Saddiniso, Mirobiddinkhoja, Sorakhon the astrologer, "Long-Eared Pir", "Danak" the priest, "Walnut" the priest, "Almond" the priest, as well as Akbar, the Sorcerer Devil, and Dar Darajala, their qualities and vices, as well as the depiction of adventurous events and how elements of fantasy are skillfully incorporated into the narrative by the author.

Keywords: Khoshimjon, Akbar, fantasy elements, children’s literature, characters, education, wizards, mystical events.

Аннотация: В данной статье проводится анализ приключенческих и фантастических произведений Худойберди Тохтабоева. Рассматриваются интересные образы, персонажи и их воспитательное значение в его творчестве. В статье представлены художественные особенности таких известных произведений писателя, как «Волшебная шапка», «На желтом демоне», «Смерть желтого демона» и «Страна сладких дынь или битва волшебников», а также размышления о теме и идее этих произведений. Также уделяется внимание положительным и отрицательным персонажам данных произведений. Рассматриваются героизм и личные качества таких персонажей, как Хошимджон, Орфи, Закир, Саддинисо, Миробиддинхожа, Сорахон астролог, «Длинноухий пири», «Данак» кари, «Орех» кари, «Миндаль» кари, а также Акбар, Волшебный Дьявол и Дар Даражала, их качества и пороки, а также изображение приключенческих событий и искусное внедрение элементов фантастики в сюжет.

Ключевые слова: Хошимджон, Акбар, элементы фантастики, детская литература, персонажи, воспитание, волшебники, мистические события.

KIRISH.

O‘zbek bolalar adabiyoti o‘zining taraqqiyotida yangicha yo‘nalishlar, yangicha uslublar bilan boyib bormoqda. Bolalar adabiyoti har doim yosh kitobxonlarning tasavvur olamini boyitish, ularni ezgulikka, jasurlikka va o‘doba-axloqqa o‘rgatish maqsadida yaratilgan. O‘zbek bolalar adabiyotini yuqori bosqichga ko‘tarilishiga munosib hissa qo‘shgan, o‘ziga xos tasvir uslubi sohibi Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodini kitobxonlari sevib o‘qiydi. Ijodkor haqida taniqli adabiyotshunos olim Umarali Normatov shunday yozadi:

“Xudoyberdi tabiatan yozuvchi bo‘lib tug‘ilgan edi; u yozuvchilikni, jurnalistikani kasb-hunar tarzida tanlagani yo‘q, qalbidagi sehrli tug‘yon, mehr-ishtiyoq uni shu sohaga boshladi. Xudoyberdi bolaligidayoq qandaydir mashrabona tabiati, xayolparastligi bilan ajralib turardi, universitetda o‘qigan yillari eng jiddiy ilmiy muammolarni ham obrazli qabul qilar va boshqalarga ham obrazli qilib tushuntirib berar edi. Hali u yozuvchi bo‘lishni xayoliga ham keltirmagan, ilm-fan ishtiyoqida yurgan kezlari ulkan bir psixolog murabbiymiz uning fikrlash tarziga qarab, ilk ilmiy mashqlari bilan tanishib “Bu yigitda bir gap bor” deb qo‘yar, hazillashib “shoir” deb atardi.”[9]

Yozuvchi o‘zbek bolalar adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, ijodkor Umarali Normatov takidlaganidek “yozuvchi bo‘lib tug‘ilgan edi”. Uning ijodi o‘ziga xos sarguzasht va fantastik yo‘nalishdagi asarlari bilan alohida ajralib turadi. Uning qalamiga mansub asarlar nafaqat yosh kitobxonlar, balki kattalar orasida ham katta qiziqish uyg‘otgan. Ushbu maqolada yozuvchining asarlaridagi sarguzasht va fantastik tasvir mavzusi tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xalqimizning mehrini qozongan ijodkor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, Hamza mukofoti sohibi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi, Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodi xususida so‘z yuritganimizda bolalarcha hayajon va zavq qalbimizni egallaydi. Yozuvchining o‘ziga xos bolalarbop tili, bola psixologiyasi bilimdoni ekanligi ma’lum, jamiyatdagi ayrim shaxslarning kirdikorlarini bola tili bilan hajv qilib ochib berishi kitobxonni hayratga soladi. Ijodkorning sarguzasht-fantastik tasvir uyg‘unligidagi asarlariga to‘xtalmoqchimiz. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sehirli qalpoqcha”, “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehirgarlar jangi” kabi asarlari o‘zbek bolalar adabiyotining sarguzasht-fantastik tasvir uyg‘unligiga asoslangan eng yorqin namunalaridan hisoblanadi. Ijodkorning “Besh bolali yigitcha” va “Quyvonlar saltanati” nomli sarguzasht romanlarida sarguzasht voqealar tasviri kuchli, ammo fantastika elementlari juda kam.[8]

Xudoyberdi To‘xtaboyevning asarlarida sarguzasht va fantastik elementlar keng qo‘llanilgan. Uning "Sariq devni minib" asarida qahramon Hoshimjon sehirli qalpoqcha topib olib bir-biridan qiziqarli sarguzashtlarni boshidan kechiradi. ***Asardagi asosiy fantastika elementlari ana shu sehirli qalpoqcha bilan bog‘liq tasvir o‘rinlarida kuzatiladi.*** Bu tasvirlar sarguzasht voqealar bilan birga kechadi. “Sariq devni minib oldim” nomli VI bobidan keltirilgan ushbu parchaga nazar tashlasak:

“Yolg‘iz qolgach, qo‘ltig‘imdagi qalpoqchamni chiqarib, boshimga kiyayotgan edim:

- Nega qaltiraysan? -deb so‘radi qalpoqcham.

- Rostini aytsam, qo‘rqayapman.

- Qo‘rqma. Qo‘rqoqlar hech qachon murodiga yetolaydi. Shu gap esingdan chiqmasin,

- ko‘nglimni ko‘tardi qalpoqcham.

Ko‘zga ko‘rinmaydigan bo‘lib olgach, xanjar bilan miltiqni olib, nariroq ketdim... kutyapman, kutyapman, vaqt yarim kechadan o‘tib, uyqularim kelib ketdi hamki, ammo sariq devdan hamon darak yo‘q.. Bir mahal ko‘zim uyquga ketay deb qolgan ekan, changalzor ichidan “shatir-shutur” ovoz eshitilib qoldi. Saktab o‘rnimdan turib ketdim... “Ana, kelyapti! O‘zingni dadil tut, Hoshim! Singling Donoxonning o‘chini oladigan payt keldi!” [1,109-bet]

Mazkur parchada Hoshimjonning Sariq devni kutish jarayoni tasvirlangan. Qalpoqcha bilan suhbat ham. Voqealar davomida “Danak qorini” boplab tazirini beradi. Juda yosh bo‘lishiga qaramasdan kattalar yechimini topa olmayotgan muammolarga sehirli qalpoqchani ko‘magida yechim topadi. “Yong‘oq” qori nomi bilan mashhur bo‘lgan “Uzunquloq pir” ziyoratgohida xalqni aldab pul undiradigan qahramonning kirdikorlarini ham fosh qilib, qishloqdan quvilishida Hoshimjon jonbozlik ko‘rsatadi. “Uzunquloq pir” ziyoratgohi sirini ochilishiga sabab bo‘ladi. Xalqning urg‘ochi eshakka sig‘inib kelganligi ma’lum bo‘ladi. “Yong‘oq” qori, “Danak” qori, “Bodom” qorilarning rejalarini barbod qiladi.

“Uzunquloq ota yoki urg‘ochi eshak qissasi” nomli XIV bob yakunida ziyoratgohning yonida katta chinorga bir taxtachani ilib qo‘yishdi. Bu taxtachada quyidagi yozuvlar yozilgan edi:

“Bir yuz yigirma yeti yildan buyon ishonuvchilar sig‘inib kelgan, beli sinib o‘lgan urg‘ochi eshak – hazrati Uzunquloq pirimning suyaklari mana shu bo‘ladi... Qo‘l tekkizilmasin, jarima – o‘n so‘m” [1, 165-bet]

Bu kabi o‘rinlar asarda juda ko‘p uchraydi. Kitobxon o‘zi uchun ajoyib xulosalar chiqaradi. Voqealar bolalar tilidan aytilganini yuqorida aytgan edik, asarni o‘qigan kitobxonga kulgu, xush kayfiyat hamroh bo‘ladi.

Asarda Hoshimjonning darslarida yordamlashadigan Saddiniso, Soraxon folbinning o‘g‘li Mirobiddinxo‘ja, uyquchi Zokir, bilimdon Orif, qovunchi Akbar obrazlari ham ajoyib tarzda keltirilgan.

“Sariq devning o‘limi” romanida asar qahramoni Hoshimjon hayotida mas‘uliyatli davr boshlanadi. Tabiatan ziyrak, fahm- farosatli Hoshimjon katta bir operatsiyada qatnashib, uning muvaffaqiyatli yakunlanishini ta‘minlaydi.”[2, 4-bet]

Maktabni tugatgach sartaroshlik kasbini tanlagan Hoshimjonga Sehirli qalpoqchasi yana hamroh bo‘ladi. U jinoyatchilarni tutishda qalpoqchasidan unumli foydalanadi va ularning kirdikorlarini ochib tashlaydi. Bu asarda ham “Sariq devni minib asaridagi singari fantastika elementlari sehirli qalpoqcha atrofida sodir bo‘ladi. Bu ikki asarda ham hayotiy sarguzasht voqealar bilan birga fantastik tasvir uyg‘unlikda kechadi. Yozuvchi bu asar orqali ezgulikning har doim g‘alaba qozonishini ta‘kidlaydi.

“Shirin qovunlar mamlakatida yoki sehrgarlar janggi” asari esa mutlaqo boshqacha – sarguzasht va yumor bilan yo‘g‘rilgan. Asarda sirli va sehrli mamlakat haqidagi hikoya davomida qahramonlar turli sinovlarga duch keladilar. Bu asar bolalar adabiyotida sarguzasht janrining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Yozuvchi yaratgan qahramonlar hayotiy bo‘lib, ular orasida oddiy bolalar, sehrgarlar va turli g‘ayritabiiy kuchlarga ega personajlar uchraydi. "Sariq devni minib" romanida qahramon Hoshimjon oddiy bola bo‘lishiga qaramay, aql-zakovat va jasorat bilan sinovlardan o‘tadi. Unga Sehirli qalpoqcha hamrohlik qiladi.

Shuningdek, “Shirin qovunlar mamlakatida yoki sehrgarlar janggi” romanida asosiy qahramon "Sariq devni minib" asaridagi Hoshimjonning do‘sti Akbar bo‘lib, Hoshimjon unga sehirli qalpoqchasini sovg‘a qilgan edi. Chunki Akbar sinifdan sinfga qolib ketgan edi. Akbarni juda ko‘p noo‘rin harakatlari tufayli o‘rtoqlari qovunchi Akbar deb atashadi.

“Ushbu fantastik –sarguzasht romanda Akbarjon o‘z sarguzashtlarini davom ettiradi. Shirin qovunlar mamlakatini har xil illatlardan tozalash maqsadida Sehrgar Iblis bilan jang qiladi. Bu kurashda unga ustoz – Dar Daraja va Sehrli Qalpoqcha yaqindan yordam berishadi”[5]

Mazkur asarning asosiy qahramonlar shaxsiy fazilatlarini bilan ajralib turadi. Ular sarguzashtlarga yo‘g‘rilgan voqealar ichida insoniy fazilatlarini saqlab qolishga harakat qiladilar. Xudoyberdi To‘xtaboyevning asarlari yosh kitobxonlarni bilim olishga, ezgulik, do‘stlik va jasoratga chorlaydi.

Yozuvchining asarlaridagi fantastik elementlar bolalar uchun nafaqat qiziqarli, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Ularda ezgulik va yovuzlik kurashi, aql-idrok yordamida yengish mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar ko‘rsatiladi. Masalan, “Sariq devni minib” asarida qahramon to‘qnash kelgan qiyinchiliklardan saboq olib, o‘zining shaxsiy fazilatlarini rivojlantiradi.

Yana bir muhim jihat shundaki, yozuvchi o‘z asarlarida milliy qadriyatlar va urf-odatlarini ham aks ettiradi. Bu bolalar adabiyotida katta ahamiyatga ega bo‘lib, yosh kitobxonlar uchun muhim hayotiy saboqlar beradi.

XULOSA.

Xudoyberdi To‘xtaboevning ijodi o‘zbek bolalar adabiyotida alohida o‘rin tutadi. Uning asarlaridagi sarguzasht va fantastik tasvirlar kitobxonlarni hayajonga soladi, ularning tasavvur dunyosini kengaytiradi va eng muhimi, insoniy fazilatlarini ulug‘laydi. U yaratgan asarlar nafaqat o‘quvchilarni sehrli dunyoga olib kiradi, balki ularni hayotning muhim qadriyatlariga ham o‘rgatadi.

Biz to‘xtalib o‘tgan “Sehirli qalpoqcha”, “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehirgarlar jangi” asarlarining barchasiga diqqat qilgan bo‘lsangiz bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, barchasida Sehirli qalpoqcha ishtirok etadi. Asar qahramonlari ham bir-biriga bog‘liq.

Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlaridagi qahramonlarning jasorat, ezgulik va do‘stlik yo‘lidagi kurashlari yosh avlodga ibrat bo‘lishi shubhasizdir. Shuningdek, uning ijodida milliy qadriyatlar va tarbiyaviy g‘oyalar katta o‘rin tutadi. Yozuvchi yaratgan sirli va g‘ayritabiiy voqea-hodisalar o‘quvchilarni nafaqat sehr va mo‘jizalar bilan tanishtiradi, balki ularni hayotning murakkab sinovlariga ham tayyorlaydi. Bu jihatlar uning ijodini bolalar adabiyotida doimiy qadriyatga aylantiradi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari yumorga boyligi, bolalar hayoti, ularning o‘ziga xos tabiati, xususiyatlari, ruhiy kechinmalari nihoyatda jonli, qiziqarli va bolalarbop yo‘sinda mahorat bilan tasvirlanishi jihatidan ajralib turadi. Xudoyberdi To‘xtaboyev o‘zbek bolalar adabiyotini jahon miqyosiga olib chiqqan ijodkorlardan biridir

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. To‘xtaboyev X. Sariq devni minib, Yoshlar matbuoti, -T.: 2023. -224 b.
2. To‘xtaboyev X. Sariq devning o‘limi, Yoshlar matbuoti, -T.: 2013. -268 b.
3. To‘xtaboyev X. Shirin qovunlar mamlakati yoki sehirgarlar jangi (Ertak-roman) –T.: «Yangi asr avlodi», 2012. – 336 bet.
4. Шайхов Х. Илмийлик ва афсонавийлик муаммолари//Ўзбекистон маданияти газ. 1979, 13 июль
5. Ибрагимова Р. Жанр научной фантастики в узбекской советской литературе. Ташкент, Фан, 1987
6. Qo‘shjonov M. Saylanma. Ikki jildlik. Toshkent, 1983, 380 b

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2007. 3- жилд. – 688 б.
8. То‘xtaboyev X. Quyonlar saltanati. (Sarguzasht romani). -Т.: «Yangi asr avlodi», 2010. - 204 б.
9. Normatov U. U bolalarning sirdoshi chin do‘sti edi. (maqola) 2021-yil. <https://daryo.uz/2021/04/05/u-bolalarning-sirdoshi-chin-dosti-edi-adabiyotshunos-umarali-normatov-dosti-xudoyberdi-toxtaboyev-haqida>
10. Xudoyberdi To‘xtaboyev, Besh bolali yigitcha(sarguzasht roman), Yangi asr avlodi, -Т.: 2009-yil, 288 б.
11. <https://kitobsevar.uz>